

MUSTAQILLIK DAVRIDA PEDAGOGIK TERMINLAR

Nurullayeva Gulnoza Muxamadillayevna

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Gumanitar fanlar fakulteti magistratura

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi I bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18441687>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada mustaqillik davrida pedagogik terminlarning qo'llanilishi, ularning ta'lim tizimiga joriy etilishi yuzasidan fikrlar va mulohazalar mavjud. Shuningdek, maqolada mustaqillikdan oldingi va mustaqillikdan keyingi pedagogik ta'lim tizimidagi atamalarining qo'llanilishi ularning iste'moldagi ahamiyati yuzasidan qarashlar ifodalangan. Maqolada mustaqillik yillarida ta'lim tizimida qo'llanilgan pedagogik terminlar izohlangan.

KALIT SO'ZLAR: Kasb-hunar kolleji, litsey, ta'lim tizimi, model, ot so'z turkumi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, obyekt, subyekt, mafkura, didaktika.

Mustaqillik davri pedagogik terminlarini o'rganish va ularning bugungi kun pedagogika sohasida qo'llanilayotgan terminlar bilan izohini, tahlilini keltirish O'zbekiston ta'lim tizimining tarixiy taraqqiyotini belgilashda qo'l keladi. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomini berilganidan so'ng ko'plab me'yoriy hujjatlar, ta'lim tizimi o'zbek tilida amalga oshirilishi haqida islohotlar yuz berdi. Tabiiy ravishda O'zbekiston hududidagi ta'lim tizimi ruslashtirilgan tizimdan o'zbeklashtirilgan tizimga o'tkazila boshlandi. Ushbu jarayonda pedagogik islohotlarning yangi terminlar bilan boyishi ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimini rivojlantirish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning xizmatlari katta. Islom Karimovning 1995-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 4-sessiyasida so'zlagan ma'ruzasi "Bunyodkorlik-farovon hayot asosi" deb nomlanadi. Unda "Farzandlarimiz va yoshlarimizga nafaqat zamonaviy kompyuterlar va ta'limning texnik vositalari, balki, birinchi navbatda, ona zaminga va uning buyuk kelajagiga sodiq bo'lgan yuksak malakali pedagoglar, ustozlar kerak. Har birimiz o'qituvchilik kasbini, pedagogning og'ir mehnatini o'ta muhim va oliyjanob ish sifatida qadrlashimiz zarur"¹ fikrlari mavjud. Haqiqatdan ham pedagogika va ta'lim sohasiga qaratilgan islohotlar mustaqillik davrining asosiy harakatlaridan biri edi. Ushbu jarayon pedagogik ta'lim tizimiga yangi terminlar va iboralarni joriy qilish bilan bevosita bog'liqdir.

Mustaqillik yillarida pedagogika tizimining asosini milliylik va umuminsoniylik, demokratik va insonparvarlikka oid ta'lim tizimi, shaxsga yo'naltirilgan, yondashuvli ta'lim tizimlari tashkil etar edi. Shu asnosida pedagogika sohasida mustaqillik davrigacha qo'llanilgan ayrim terminlar va jumalardan muqobilidagi terminlarga o'tishga harakat boshlandi. Misol uchun: Ot, sifat, son, fe'l, ravish, olmosh. "Termin" so'zining izohiga yuzlanadigan bo'lsak, ushbu atamaning boshqa biror ma'noli, sinonimli qismlarga bo'linmaydigan va yaxlit ma'noga ega bo'lgan tushunchaga nisbatan qo'llanilishini bilish mumkin. Ot so'z turkumi bugungi kunda kim? nima? Qayer? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Mustaqillik yillaridan oldin esa o't so'z turkumiga nisbatan "имя существительное" atamasi qo'llanilgan. Pedagogik atamalarni fanga kiritish avvalida ularning ifodalaydigan ma'nosi ko'p ma'nonilik va sinonimlikdan yiroq bo'lishi haqida tushunchalar mavjud edi. "Tanlangan termin bir ma'noli, ixcham so'z yoki birikmadan

¹ Karimov I.A "Bunyodkorlik - farovon hayot asosi". O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasida so'zlagan nutqi. Toshkent – "O'zbekiston" – 1995

iborat bo'lishi, sinonimlarga ega bo'lmasligi kerak"². Ushbu fikrlarni yodda tutgan holatda mustaqillik davridagi olimlar narsa, buyum, predmet ma'nosini bildirishda "ot" so'zi ma'noviy jihatdan yaqinlik bo'lgani sababli so'z turkumi darajasiga ko'tarildi. Bunday holatlar pedagogik terminlar orasida ko'plab kuzatiladi. Bunga sabab ma'lum bir davrda ma'lum bir aholi tilidan yangi so'zlarni yasash yoki chet tillaridan so'zlarni o'zlashtirish muqobil variant hisoblangan. Mustaqillik yillariga qadar rus ta'lim tizimidan o'zlashtirilgan so'zlar iste'molda bo'lganligi sababli, xalq tili va shevalaridan adabiy til vositalaridan ularning muqobil ekvivalentini topish va joriy etish masalasi yuksak ahamiyat kasb etdi. "Mustaqillik davri o'zbek tili lug'at tarkibida quyidagi lisoniy o'zgarishlar yuz berdi:

1. Xorijiy tillardan bevosita yoki bilvosita so'zlar olindi.
2. Tilning ichki imkoniyati hamda til egalari ehtiyojidan kelib chiqib, o'zlashma tarkibli yangi so'zlar yasaldi.
3. So'z yoki ibora semantik strukturasi yangi ma'nolar bilan boyidi³.

Haqiqatdan ham har qanday tilning boyish manbalari o'zga davlatlardan o'zga aholi tillaridan muqobil variantlarni olish va shevalardan so'z olish orqali boyib boradi. Ba'zi holatlarda so'zning yasalihi orqali ham so'zlarning boyish hodisalari kuzatiladi. O'zbek tili pedagogik ta'limida ishlatiladigan fe'l so'z turkumi harakat, faollikni bildiruvchi so'z bo'lganligi sababli pedagogik jarayonga jalb etilgan. Mustaqillik davrigacha esa bu so'z "Глагол" deb atalar edi. Mustaqillikka erishgan milliy davlat tiliga sohib bo'lgan har qanday jamiyat o'z tilidagi ta'lim tizimini joriy etish huquqiga ega edi. Shu bois milliy davlat asosidagi ta'lim tizimi yana bir qator so'zlarni adabiy tildan ilmiy tilga ko'chirish ustida ish olib bordi. 1993-1997 yillar davomida O'zbekistondagi ta'lim tizimi bir qator so'zlarni muqobillashtirdi, yangi atamalarni joriy etdi. Model. Ushbu so'z O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish, taraqqiyot harakatlarini bildiruvchi va qoliplashtirilgan sistema asosidagi faoliyatini anglatishiga ko'ra pedagogikaga muvofiqlashtirildi. Pedagogika sohasida esa boshlang'ich ta'lim modeli, o'rta ta'lim modeli, maktabdan keyingi ta'lim modeli shakllari yaratildi. Test. Ushbu so'z tibbiyot sohasida qo'llaniluvchi ma'lum bir kasalliklarni aniqlash yuzasidan tibbiy ko'rik ma'nolarni anglatishi bilan xarakterlanar edi. 1992-yilda o'zbekiston ta'lim tizimida ikki variantli test shakllari joriy etildi. Ushbu so'zning tibbiy manosidan chetlashish va o'quvchilar saviyasi, bilim darajasini o'rganish borasidagi tahliliy natijalarni olishda qo'llanildi. 1993-yildan boshlab pedagogik ta'lim tizimida rasmiy ravishda test orqali turli usullarda talabalarni tanlash, oliy ta'limga jalb etish yo'llari joriy etildi. 1996-yildan boshlab esa ko'p variantli testlarining turli xil texnologiyalar va usullarda ta'lim tizimida ko'rinishlari paydo bo'la boshladi. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimida mafkura, demokratik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, uzluksiz ta'lim, obyekt, subyekt, metod, informatika, kasb-hunar kolleji, o'zbek modeli, kafedra, akademik litsey, didaktika, ta'lim standarti kabi tushunchalar atama sifatida ta'lim tizimiga joriy etildi. O'zbek tilining izohli lug'atida guruh so'zining besh xil ma'nosi izohlangan: "1. Bir to'p odam, to'da. 2. Maqsad, maslak, faoliyat va sh. k. lar umumiyliги asosida shakllangan rasmiy yoki norasmiy jamoa. 3. Umumiy belgi, xususiyatga ega bo'lgan bir turdagi narsa, hodisalar majmui, turkumi. 4. Dars, mashg'ulot o'tkazish maqsadida

² Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – № 3 – Б.85-89

³ Ўзбек тили ва адабиёти, 2016. – № 2. – Б.41-45

birlashtirilgan kishilar, talabalar bo'linmasi, to'pi. 5.Tabaqa, toifa; daraja"⁴. Pedagogik ta'lim tizimida birlamchi va ikkilamchi shaxs munosabatlari obyekt va subyekt terminlari orqali ifodalanadigan bo'ldi. Shuningdek, mustaqillik yillaridan so'ng esa akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari atamaları joriy etildi. 1997-yil 29-avgust Toshkent shahrida birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan 9+3 talim tizimi joriy etildi. Bunga ko'ra o'quvchilar maktabda 9 yil keyin esa akademik litseylar yoki kasb-hunar kollejlari tahsilni davom ettiradigan bo'ldilar. Kollej so'zi an'anaviy ta'limning ko'rinishi shakldagi varianti hisoblangan bo'lib, an'anaviy 11 yillik ta'lim tizimining yangi shakli sifatida qaraldi. Kollej so'zi inglizcha "college" so'zidan olingan bo'lib "bilim yurti" ma'nolarini anglatadi. Kollejlar Buyuk Britaniya, AQSH va qator mamlakatlarda ta'lim tizimida joriy etilganligi sababli O'zbekistonda ham ushbu atama ostidagi bilim yurtlari tashkil etildi. Mustaqillik yillarida 11 yillik ta'lim tizimi mavjud bo'lib, maktabdan keyingi ta'lim tizimi texnikum deya nomlangan. Texnikumlarda tahsil olish majburiy emas edi. Birinchi prezidentimizning 1997-yil 29-avgustdagi qaroriga ko'ra maktab va kasb-hunar kolleji ta'lim tizimi amaliyotga tadbiiq etilgan. Ma'fura so'zi arab tilidan olingan bo'lib, jamiyat orzusi, ijtimoiy guruh, g'oya kabi ma'nolarni anglatadi. Mustaqillikkacha bo'lgan ta'lim tizimida ushbu so'z "идея" shaklida qo'llangan. Bunga sabab esa falsafashunoslarning materialistlar va idealistlar nomi ostidagi faoliyati edi. Milliy g'oya, vatan tuyg'usi kabi fanlarda "Ma'fura" so'zi g'oya, tushuncha kabi ma'nolarni anglatadi boshladi. Umumiy olib qaraganda, O'zbek xalqi turkiy va turklashgan xalq bo'lganligi, tarixiy negizdan arab, fors, tojik tillari bilan aloqador faoliyatda bo'lgan. Shu bois ham mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng ta'lim tizimiga arabcha, forsha, turkcha, tojikcha so'zlarning muqobil variantlari qabul qilingan. Metod so'zi yunoncha "metodos"- "yo'l" degan ma'noni anglatishi bilan xarakterlanadi. Ushbu ataman mustaqillik davrlaridan keng tarzda qo'llanila boshladi. Pedagogik bilim va salohiyatni o'quvchi-yoshlarga samarali yetkazish, ularning olayotgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida metodlardan ya'ni usullardan foydalanishgan. "Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Uning fikricha, ta'lim oluvchilarga ta'lim berishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- talim oluvchilarni zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki fanni orgatavermaslik shart, bu dars jadvaliga qoyilgan talablardan biri;
- uzviylik va izchillik;
- taxlil qilish va taqqoslash;
- takrorlash;

-materialni korgazmali bayon etish va shu kabilar. Shuningdek, olimning fikricha, olib boriladigan oquv mashg'ulotlarining mazmun-mohiyati oquvchilarning yosh xususiyatlariga ham mos keladi va unda turli xil metodlardan foydalanib oquvchi yoshlarni fanga nisbatan qiziqishlarini rivojlantirish ko'zda tutiladi⁵.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б.

⁵ Muratova Nodira Iskandarovna "Pedagogik faoliyatda ta'lim metodlari va innovatsion metodlarning o'rni va afzallik tomonlari" maqola. Akademik Reserch in Educational Sciences. 2021, 679 b

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, pedagogik taraqqiyotimizni o'rganish, mustaqillik davrida qo'llanilgan atamalarining bugungi kun atamalari bilan farqli jihatlarini tahlil qilish, ilmiy jarayonning eng muhim vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimov I.A "Bunyodkorlik-farovon hayot asosi". O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasida so'zlagan nutqi. Toshkent – "O'zbekiston" – 1995. - 40 b
2. Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – № 3 – Б.85-89.]
3. Ўзбек тили ва адабиёти, 2016. – № 2. – Б.41-45.]
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б
5. Muratova Nodira Iskandarovna "Pedagogik faoliyatda ta'lim metodlari va innovatsion metodlarning o'rni va afzallik tomonlari" maqola. Academic Reserch in Educational Sciences. 2021, 679 b